

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK MIGRANTLAR HUQUQLARINI
TA'MINLASH VA HIMOYA QILISH MUAMMOLARI

Radjabov Dilshod Ikromovich

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasida ekologik migratsiyani tartibga solishning nazariy asoslari, ekologik sabablarga ko'ra harakatlanuvchi shaxslar tushunchasining atamalari va ta'riflari, ekologik migrantlar toifalari va ularning nazariy va amaliy jihatlari, insonning ekologik huquqlarini tan olish va mustahkamlash ekologik migrantlarning xalqaro huquqiy maqomini belgilashning zaruriy shartlariga bag'ishlangan. Maqolada O'zbekistondagi ekologik migratsiya muammolari o'rganib chiqilgan, hamda mazkur yo'nalishda Xalqaro tajribaga murojaat qilgan holda amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalar xususida atroflicha to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ekologik migrant, geologik jarayonlar, Xalqaro Migratsiya Tashkiloti(XMT), BMT Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi, BMT Qochqinlar bo'yicha agentligi, ekologik muammolar.*

PROBLEMS OF ENSURING AND PROTECTING THE RIGHTS OF
ENVIRONMENTAL MIGRANTS IN UZBEKISTAN

Abstract: *In the article, the theoretical basis of the regulation of ecological migration in the Republic of Uzbekistan, the terms and definitions of the concept of persons moving for environmental reasons, the categories of ecological migrants and their theoretical and practical aspects, the recognition and strengthening of human environmental rights, the necessity of determining the international legal status of ecological migrants dedicated to the conditions. In the article, the problems of ecological migration in Uzbekistan are studied, and the goals and tasks that should be implemented in this direction, referring to the international experience, are discussed in detail.*

Keywords: *Ecological migrant, geological processes, International Organization for Migration (IOM), UNHCR, UN Refugee Agency, environmental problems.*

“BMTning yangi ekologik siyosati asoslarini tashkil etishga qaratilgan Butunjahon Ekologiya Xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surmoqchimiz”.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Jahon banki tomonidan qilinayotgan prognozlarga qaraganda 2050-yilga kelib, ichki ekologik migratsiyaning faol nuqtalari Farg'ona vodiysi, Toshkent atrofi va Tojikiston janubidagi pastroq hududlarda (jumladan, Dushanbe) hamda yashovchilar zichroq bo'lgan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 76-сессиясидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/4632>

aholi punktlari (Qorag'andi, Nur-Sulton va Qo'stanay) va Qozog'istonning shimoliy lalmikor ekin maydonlarida bo'lishi qilinmoqda. Mazkur prognozlar suv bilan ta'minlanganlik va hosildorlikka bevosita bog'liq hisoblanadi. Iqlim migratsiyasi ushbu hududlarda, xususan, shahar va shahar atrofidagi hududlarda, shuningdek, Farg'ona vodiysida aholi sonining ko'payishi tendentsiyalarini jadallashtiradi.

Tashqi ekologik migratsiya 2050-yilga kelib Qozog'istonning janubiy chegarasi, Farg'ona vodiysi O'zbekiston va Tojikistonning chegaralarida hamda Bishkek atrofidagi hududlarda suv bilan ta'minlanish va ekinlar hosildorligining prognoz qilinayotgan pasayishi tufayli jadallashuvi prognoz qilinmoqda. Ayni shunday holat, ya'ni tashqi ekologik migratsiya Sharqiy Turkmaniston va O'zbekiston janubida, xususan, Amudaryo bo'yidagi sug'oriladigan ekin maydonlarining kichikroq hududlarida ham avj olishi taxmin qilinmoqda. Tashqi ekologik migratsiya bu hududlarda aholi zichligining prognoz qilinadigan pasayishiga olib kelishi mumkin. Migratsiya sohasida Markaziy Osiyo jamiyatlari borgan sari harakatchan bo'lib bormoqda, mamlakatlar ichida ham, shaharlar bo'ylab ham sezilarli migratsiya kuzatilmoqda². Asosan mehnatga layoqatli yoshdagi migrantlar qabul qiluvchi mamlakatlarda mehnat unumdorligini oshiradi va o'sishni kuchaytiradi. Tojikiston faol aholisining taxminan 25-30 foizi qo'shni mamlakatlarda yashab, ishlaydi. Yosh ham migratsiyada muhim omil bo'lib, bugungi kunda o'z mamlakatlari tashqarisida ish izlayotgan yosh ishchi kuchi ortib bormoqda. Biroq ular migratsiya xarajatlari tufayli, asosan, yaqin davlatlarga ko'chib o'tadilar. Shu bilan birga, yuqori malakali ishchilar katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatlarga ko'chib o'tishlari mumkin, bu esa malakali va ma'lumotli ishchilar zaxirasini tugatib, o'z mamlakatlaridagi rivojlanish va iqtisodiy dinamizmni bo'g'ib qo'yishi mumkin³.

Jahon banki O'zbekistonning ekologik migratsiya tendensiyasi 2030-yilgacha allaqachon aniq belgilashgan, ekologik migratsiya 2050-yilda kengayib borishini va kuchayishini taxmin qilmoqda Farg'ona vodiysi, Toshkent atrofi va Tojikiston janubidagi pastroq hududlar (jumladan, Dushanbe) Qozog'iston shimolidagi (Qorag'andi, Nur-Sulton va Qo'stanay) zichroq aholi punktlari bilan bir qatorda ekologik migratsiya nuqtalari bo'lishi taxmin qilinmoqda. Ekologik migratsiyasi ushbu hududlarda, xususan, shahar va shahar atrofi hududlarida, shuningdek, Farg'ona vodiysida aholi sonining prognozli o'sishi tendentsiyalarini kuchaytiradi. Qozog'istonning janubiy chegarasida, O'zbekiston va Tojikistonning Farg'ona vodiysi va Bishkek atrofidagi hududlarda tashqi ekologik migratsiya o'choqlari bo'lishi kutilmoqda, bu esa suv bilan ta'minlanish va ekinlar hosildorligining prognoz qilinadigan kamayishini aks ettiradi. Sharqiy Turkmaniston va Amudaryo bo'yidagi O'zbekiston janubidagi kichikroq hududlari ham xuddi shu sabablarga ko'ra tashqi ekologik migratsiya nuqtalari bo'lishi taxmin qilinmoqda. Tashqi ekologik migratsiya ushbu hududlarda aholi zichligining prognoz qilinadigan pasayishini yanada kuchaytiradi.

² Laruelle, Marlène, ed. 2013. Migration and Social Upheaval as the Face of Globalization in Central Asia. Migration and Social Upheaval as the Face of Globalization in Central Asia. Social Sciences in Asia, Volume 34. Brill. <https://brill.com/view/title/21442>.

³ Mukhitidinova, Nasibakhon. 2015. "Central Asia." In UNESCO Science Report: Towards 2030, 364–86. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. <http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/unesco-science-report-towards-2030-part1.pdf>.

O'zbekistonda ham ekologik migratsiya bo'yicha holat og'irlashmoqda. Orol dengizidagi vaziyat yangi ekologik migrantlarni keltirib chiqarishda davom etmoqda⁴. Orol dengizi yillar davomida qurib, hozir qum va zararli tuzlar cho'liga aylanib, 40-50 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi ikki millionga yaqin aholining yuz mingga yaqini Orol dengizi havzasi qurib qolganidan keyin allaqachon hududni tark etgan. Bir paytlar Respublika iqtisodiyotining asosiy manbai bo'lgan baliqchilik bugungi kunda paxta, sholi va poliz mahsulotlari yetishtirishdan ortda qoldi.

2020-yil 27-aprel kuni kuchli dovul Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l, Romitan va Shofirkon tumanlaridagi ko'plab qishloqlarga ziyon yetkazib, odamlar yashab turgan uylarning shifti uchib ketgan, ekinlarga ziyon yetgandi. Ayniqsa, Olot va Qorako'l tumanlarida zarar ko'lami ko'proq bo'lib, viloyat bo'yicha jami 1881 ta ko'p kvartirali uy-joylarning 204 tasiga jiddiy zarar yetkazilgan. 2020 yilning 1 mayida Sirdaryoning O'zbekiston qirg'og'idagi Sardoba suv omborida to'g'on qulashi O'zbekiston va qo'shni Qozog'istonda kuchli suv toshqinlariga sabab bo'lib, natijada 90 mingdan ortiq aholi evakuatsiya qilingan⁵.

Shu bilan birga, hozirgi kunga qadar milliy darajada, ya'ni mamlakatimizdagi ekologik migrantlarning **nafaqat aniq soni**, balki taxminiy hisobi yoki hatto prognozini ham aniqlash imkoni muammoligicha qolmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va IIVning Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasida o'z faoliyatlariga doir umumiy statistik ma'lumotlarga ega bo'lsa-da, migratsiyaning sabablari yoki boshqa mezonlari bo'yicha aniq va batafsil **statistikalari mavjud emas**. Bu yurtimizda aynan migratsion jarayonlarni ekologiya muammolari bilan bog'liq holda o'rganilgan tadqiqotlarning yetarli emasligi, qolaversa, tegishli manfaatdor davlat idoralarining ekologik migratsiya bo'yicha hisobot shakli yuritilmasligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ekologik migrantlarning tajribalari, ehtiyojlari va ustuvorliklari jinsga qarab o'zgaradi va hukumatlar siyosat yuritayotganda adolatli bo'lishi uchun bu farqlarni hisobga olish kerak. Hukumatlar, donor tashkilotlar va fuqarolik jamiyati iqlim o'zgarishining ayollarga ta'sirini kamaytiradigan ayollar ta'limi, sog'lig'i, qishloq xo'jaligi bilimlari va huquqlarini rag'batlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni boshlash mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq migratsiyaning muammolari haqida fikr yuritar ekan, tadqiqotchilar ayollarning bu jarayondagi eng zaif guruhlardan biri ekanligiga e'tibor qaratishlari kerak. Gender o'lchovlarini yanada chuqurroq tushunish uchun erkaklar va ayollarning tajribasi va ta'sirini aniq tasvirlaydigan ekologik migrantlar bo'yicha fanlararo tadqiqotlar talab qilinadi. Ushbu maqolada taklif qilingan misollar ijobiy yo'lni ta'minlash uchun mo'ljallangan. Xulosa qilib aytganda, maqolada shakllantirilgan va asoslantirilgan asosiy xulosa va takliflarni umumlashtirib quyidagilarni bayon qilamiz:

1. Shu bilan birga, hozirgi kunga qadar milliy darajada, ya'ni mamlakatimizdagi ekologik migrantlarning nafaqat aniq soni, balki taxminiy hisobi yoki hatto prognozini ham aniqlash imkoni muammoligicha qolmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va

⁴ <https://migrants-refugees.va/country-profile/uzbekistan/>

⁵ Migration Profile UZBEKISTAN November 2020 <https://migrants-refugees.va/country-profile/uzbekistan/>

iqlim o'zgarishi vazirligi va IIVning Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasida o'z faoliyatlariga doir umumiy statistik ma'lumotlarga ega bo'lsa-da, ekologik migratsiyaning sabablari yoki boshqa mezonlari bo'yicha aniq va batafsil statistikalari mavjud emas. Bu yurtimizda aynan migratsion jarayonlarni ekologiya muammolari bilan bog'liq holda o'rganilgan tadqiqotlarning yetarli emasligi, qolaversa, tegishli manfaatdor davlat idoralarining ekologik migratsiya bo'yicha hisobot shakli yuritilmasligi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 11.07.2017 yildagi PQ-3126-son qarori asosidagi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi to'g'risidagi nizomga tegishli o'zgartirish kiritishni taklif qilamiz.

2. O'zbekistonda migratsiya, jumladan, ekologik migratsiya siyosatini amalga oshirishda normativ-huquqiy bazani shakllantirish va tashkiliy-institutsional yo'nalishlarda o'z yechimini taqozo etayotgan bir qator **dolzarb masalalar** saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining migratsiya sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish lozim. Mazkur konsepsiyada migratsiya turlariga, xususan, ekologik migratsiyaga alohida to'xtalib ekologik migrantlarning ko'chish joylarida (uy-joy, ish bilan ta'minlashi, tayanch ta'lim, kasb-hunarga o'qitish va sog'liqni saqlash xizmatlari, moddiy yordam ko'rsatishi) ularni ijtimoiy himoya qilish va moslashish mexanizmlarini ta'minlashi kerak. Bunda Kotsepsiya mazkur sohadagi davlat siyosatining maqsadi, vazifalari, prinsiplari va asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi qarashlarning yagona tizimini ifodalashi lozim.

3. Ekologik migratsiya bo'yicha respublikaning barcha viloyat, tuman va shaharlarida atrof-muhitning buzilish sabablarini oldini olish va bartaraf qilish maqsadida ekologik vaziyatni kuzatib borish, o'ta og'ir holatlarda esa - ushbu hududdagi atrof-muhit ifloslanishida aybdor bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mablag'larini jalb qilgan holda aholini ko'chirishni tashkil etish tizimini yaratishni taklif qilmoqchimiz.

4. Mamlakatimizdagi atrof-muhit xavfi bo'lgan hududlardan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik migratsiyani prognoz qilgan holda davlat, hudud va aholi manfaatlariga muvofiq odamlarni ko'chirish ehtimoli uchun zaxira yer fondini yaratishni taklif qilmoqchimiz. Mazkur yer fondlarida ekologik ofatlardan zarar ko'rgan aholini rehabilitatsiya qilish imkonini beradigan infratuzilmani yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi". // <https://strategy.uz/index.php?static=programma>
2. Холмўминов Ж. Т. Экологическое право на основе законов Республики Узбекистан. - Т.: "Тафаккур", 2010.
3. ГА ООН, Резолюция от 21 декабря 2016 г., Международная миграция и развитие.
4. ГА ООН, Резолюция от 19 сентября 2016 г., Нью-Йоркская декларация о беженцах и мигрантах
5. Environmental and Energy Study Institute. 1112 16th Street, NW, Suite 300.

Washington, DC 20036. (202) 628-1400. www.eesi.org

6. Страница Генерального секретаря ООН официального сайта ООН. URL: <https://www.un.org/sg/ru> (дата обращения 01.10.2018).

7. Высторобец Е.А. Экологическое право - мотивации в международном сотрудничестве : монография. / Е.А. Высторобец - Москва : Наука, 2006. - 450 с